


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5950,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 111,2 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1083,3 mlrd. so'mga oshdi.




2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	5950,8	111,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	358,0	112,4
moliyaviy xizmatlar	842,7	166,6
transport xizmatlari	1276,8	103,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1185,5	101,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	149,7	101,3
savdo xizmatlari	1935,1	105,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	188,3	104,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	196,9	107,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	119,2	104,2
ijara xizmatlari	169,8	104,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	183,5	102,0
shaxsiy xizmatlar	320,8	103,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	58,9	108,9
boshqa xizmatlar	151,1	94,8

Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (166,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (108,9 %), ta'lim sohasidagi (107,8 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyul oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 1935,1 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 1276,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 842,7 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 358,0 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 149,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 15,4 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 134,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,5 %), transport xizmatlari (21,5 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,4 %), hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,3 %) tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1276,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1185,5 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,8 % tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (166,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,4 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (108,9 %), hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	5950,8	111,2
Farg'ona sh.	2787,2	117,9
Qo'qon sh.	759,8	110,0
Quvasoy sh.	92,3	104,6
Marg'ilon sh.	611,8	107,8
Oltiariq t.	153,1	103,5
Qo'shtepa t.	87,3	102,0
Bag'dod t.	118,8	103,4
Buvayda t.	115,9	102,1
Beshariq t.	124,8	103,7
Quva t.	136,4	106,5
Uchko'prik t.	162,2	102,2
Rishton t.	106,7	100,0
So'x t.	48,9	101,0
Toshloq t.	113,8	102,7
O'zbekiston t.	133,4	107,5
Farg'ona t.	159,0	106,7
Dang'ara t.	110,7	101,9
Furqat t.	55,5	100,0
Yozyovon t.	73,3	105,5

2019 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (117,9 %), Qo'qon (110,0 %) shaharlarida hamda O'zbekiston (107,5 %), Farg'ona (106,7 %) va Quva (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi

(jami hajmga nisbatan %)



2019 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,8 %), Qo'qon (12,8 %) va Marg'ilon (10,3 %), shaharlarida hamda Farg'ona (2,7 %), Uchko'prik tumanlarida (2,7 %) qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

71-230-87-28